



PRESS-RELIZ

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatiga

**“Fitch Ratings”dan ilk marotaba “Barqaror” prognozi bilan
“BB-” darajasidagi xalqaro kredit reytingi berildi**

O‘zbekiston, Toshkent shahri, 2024-yil 9-iyul. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati “Fitch Ratings” xalqaro reyting agentligi tomonidan “Barqaror” prognozi bilan “BB-” darajasidagi uzoq muddatli kredit reytingini oldi.

“Fitch Ratings” agentligi tomonidan Kompaniyaning kreditga layoqatlilik xususiyatlari “bb” darajasida baholanishi 2024-yil yakunlari bo‘yicha 3 million unsiyadan (Moz) ortiq oltin ishlab chiqarish kutilayotgan jahonda to‘rtinchи yirik oltin ishlab chiqaruvchi Kompaniyaning moliyaviy barqarorligini aks ettiradi.

Avvalroq “NKMK” AJning barqaror kompaniya sifatidagi mavqeyi “S&P Global Ratings” xalqaro agentligi reytingida tasdiqlangan edi.

“Fitch Ratings” agentligi tahlilchilarining fikriga ko‘ra, “NKMK” AJ soha korxonalariga nisbatan ishlab chiqarish tannarxining arzonligi, eng yirik bo‘lgan “Muruntov” konidan uzoq vaqt davomida foydalanish mumkinligi, foydaning yuqori marjasni va past qarz yukini saqlab turishi bilan ajralib turadi. Reyting agentligining reliziga ko‘ra, “NKMK” AJ 2024-yil yakunlari bo‘yicha Kompaniyaning ishlab chiqarish quvvatini 2017-yilga nisbatan 30 foizga oshirish imkonini beruvchi investitsiya dasturini belgilangan muddatidan ikki yil oldin yakunlamoqda.

O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, yalpi ichki mahsulotning yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash va fiskal ko‘rsatkichlarni yaxshilashga xizmat qiluvchi tarkibiy islohotlarning izchil amalga oshirilayotgani Kompaniya reytingini oshirish omillaridan biridir.

Bosh direktorning transformatsiya bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Ye.A. Antonov “Fitch Ratings” xalqaro reyting agentligi relizini quyidagicha sharhladi:

“NKMK” AJning moliyaviy barqarorligi “Fitch Ratings” agentligi tomonidan tasdiqlanishi Kompaniyaning global transformatsiyasidagi navbatdagi qadamdir. Bu bizning strategik rejalarimiz va operatsion samaradorligimizni mustahkamlaydi

va kelajakdagi o'sish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Reyting nafaqat kapital bozorlaridagi mavqeyimizni oshiribgina qolmay, balki barqaror va mas'uliyatli qazib olishga sodiqligimizni ham ta'kidlaydi. "Fitch Ratings" tomonidan reytingning berilishi Kompaniya faoliyatining muvaffaqiyatidan dalolat berib, hamkorlik va yangi moliyaviy vositalar, shu jumladan qimmatli qog'ozlarni chiqarish orqali joriy etish imkoniyatlarini ochadi.

Bosh direktorining iqtisod va moliya bo'yicha o'rinnbosari J.T. Xasanov ta'kidlashicha:

"Bir vaqtda ikkita nufuzli xalqaro agentlik mustaqil ravishda Kompaniyaning kredit reytingini barqaror prognoz bilan "BB-" darajasida tasdiqlagani biz uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu Kompaniyaning moliyaviy barqarorligidan dalolat berib, Kompaniyaning xalqaro kapital bozoriga chiqishi orqali mavjud moliyaviy vositalarni diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini yaratadi".

"Fitch Ratings" tomonidan berilgan "BB-" reytingi "NKMK" AJning jahondagi yetakchi oltin qazib oluvchi kompaniyalardan biri sifatida mustahkam mavqeyini aks ettiradi, bu Kompaniyaning ishlab chiqarish quvvatlari, keng resurs bazasi va uzoq muddatli istiqbolda erkin pul oqimlarining barqaror shakllanishi bilan tasdiqlanadi.

"Fitch Ratings" relizining to'liq ko'rinishi bilan quyidagi [havola](#) orqali tanishish mumkin.

Kompaniya haqida qo'shimcha ma'lumotlar www.ngmk.uz saytida mavjud.

"NKMK" AJ Matbuot xizmati.